



«Shalola»
sizga shoshiladi

2-bet

BIR
QALAM
QADRI

3-bet

Qishloq
omon
qoldi

5-bet

Sizga
havas qiladilar

6-bet

www.tongyulduzi.uz

TONG yulduzi

Vatan yagonadir,
Vatan bittadir!

2010-yil
11-oktabr
N:41
(66790)

Gazeta 1929-yil 1-avgustdan chiqqa boshlagan

O'zbekiston Respublikasi bolalar va o'smirlar gazetasi

ISSN - 2010-6092

M A T B U O T



«Tong yulduzi»ga
obuna davom
etmoqda!

Obuna bo'lganingiz
uchun rahmat!

Nashr indeksi: 198

Z.Muhsimova olgan surat

Har bir oʻshaxabar odamga qanot bagʻishlaydi, bilʻaks, yaxshiliklarni niyat qilib, odamlarga bir chindim quvonch hadya etgan kishi — bir karra buyuk, bolalar dunyosiga zarraning zarrasini olib kirgan inson esa ikki karra buyuk. Bu bugunning gapi emas, balki oʻz paytida buyuklar tomonidan oʻtirof etilgan haqiqat.



«SHALOLA»
SIZGA
SHOSHILADI



bugun ularning orzulari chinakamiga roʻyobga chiqdi. — «Shalola» dunyoga keldi. Bu avvalo «Barkamol avlod yili»da aziz bolajonlarimiz uchun haqiqiy sovgʻamiz boʻldi, desak mubolagʻa emas!

Bundan biz «Tong yulduzi», «Klass» gazetolari va «Gʻuncha» jurnali xodimlari ham juda mamnunmiz. Shu soha odamlari boʻlganimiz uchun har bir yangi nashrni oʻz muxlislariga yetkazguncha qanchadan-qancha zahmat chekilishini yaxshi bilamiz. Darvoqe, yangi nashr «Gulxan»chi doʻstlarimizning mashaqqatli, arziqli mehnatlari samarasidir. Biz ularni chin dildan qutlaymiz!

Oʻn olti sahifadan iborat yangi jurnal muqovasidan tortib, oxirgi betigacha yorqin, rangli holda tayyorlangan, uni goʻyoki goʻzal bolaning oʻftobdek charaqlab turgan yuziga oʻxshatish mumkin. Unda asosan bolalarning oʻzlaricha olamni his etib chizgan rasmlari va tasvirga olgan suratlar eʼlon qilingan. Menga Toshkent shahridagi 157-maktab oʻquvchisi Solih Nigʻmatovning «Goʻzal tabiat» hamda Qashqadaryo viloyati, Chiroqchi tumanidagi 95-maktab oʻquvchisi Maʼruf Erkinovning «Jonli tabiat» suratlarini, Sherzod Safarboyevning olgan surati yoqdi. Bir qarashdayoq ularda isteʼdod borligini his etish mumkin.

Jurnalning fidoyi xodimlari — Muhabbat Hamidova bilan Farhod Eshmoʻminovlarning «Qoʻgʻirchoqlar bayrami» maqolasi hamda shu mavzuga oid rang-barang fotosuratlarining berilishi yangi nashrga chiroyli bezakdek yarashgan. Shuningdek, oʻninchi sahifadagi «Baqaloqning bir kuni» rasmi hikoya, «Kulgi qutisi» rukni ostidagi qiziqarli latifalar, «Hayvonot bogʻi» va «Topishmoqlar» sahifalari juda jonli chiqqan.

*Kullas, eshitmadim demanglar,
zukko bolalar-u ziyrak ota-
onalar, siz kutgan, siz orzu qilgan
«Shalola» yoʻlga chiqdi. Uning
dadil odimlari siz-u bizga omad
keltirsin!*

Toʻlqin HAYIT

M amnlik nurlaridan koʻzlari porlab turgan Ashurali Joʻrayev «Shalola» jurnalining nishona sonini sovgʻa qilib olib kirganda, torgina xona tong kabi yorishib ketgandek boʻldi-yu, men mana shu gaplarni esladim. Uning bundan toʻrt yil oldin ish boshlagan paytida: «Bolalar uchun bir yaxshi ish qilsam», degan gapini eshitib, koʻnglida qandaydir bir orzu tugʻilganidan

xabarim bor edi. Xolisaniillo aytganda, hamiyatli hamkasbimizning oʻziga xos yashash tarziga egaligini, doʻst-u yorga, ustozlarga jonini fido qiluvchi, goho keskin gapiruvchi insonligini, uzoq yillardan buyon matbuot sohasida ishlab, jiddiy qalam tebratib kelayotganini, bir necha samimiy kitoblar muallifi, jumladan «Mushtum» jurnalida Bosh muharrir vazifasida faoliyat koʻrsatganda unga ilova tarzida «Afandi» gazetasini tashkil etib, muxlislarini quvontirganini yaxshi bilamiz. Ammo shu oʻrinda bir narsani alohida taʼkidlashni xohlardimki, u bolalarning ham haqiqiy doʻsti, fidoyisidir, toʻrt yildan buyon birga ishlab, buning ham guvohi boʻldim va bugun u shu xislatini «Shalola» shaklida ifoda qildi.

— Turli nashrlarda isteʼdodli bolalarning hikoya, ertaklari tez-tez bosilib turadi, — deydi u. — Lekin rassom boʻlishni orzu qilayotgan yoshlarning safi yildan-yilga koʻpayib bormoqdaki, bugungi kunda ularning ham oʻz nashrlari boʻlishini, xususan, bu toʻgʻrida, turli yigʻinlarda, uchrashuvlarda va bizga yoʻllayotgan xat-xabarlarida takror-takror aytaётganlarini eshitib yurgan edik. Mana



Oʻylashimizcha, Navoiyning yosh shoir sheʼriga «...javob aytmoq bu faqir qoshida maholatdur» deya eʼtirof etishi butun dunyo adabiyoti tarixida misli yoʻq bir hodisadir.

Adolat yuzasidan qayd etish lozimki, Navoiy baytlarida tardi aksli qoʻshqofiya oʻrinda boshqa nozik sanʼatlar yetilgan anorning sharbatiday liq toʻla. Masalan, «To qildi...» deb boshlangan baytda yuz soʻzi ikki oʻrinda ikki maʼnoda kelmoqda (tajnis). Bu baytda yana bir unikal soʻz sanʼatini uchratamiz: **havas** (arab alifbosida yozilishi «havos») soʻzining tarkibida **havo** soʻzi borligidan tardi aks yasalgan. Toʻrtinchi baytning originalligi shunday koʻrinib turibdi. Unga yana bir betakror sanʼatni xos — **oshno** soʻzining birinchi harfi oxirgi harfiga qofiya boʻlib kelmoqda! Ravshanki, bunday baytlarni sunʼiy ravishda, vaznga solingan misralarni qatorlashtirish bilan «toʻqib» boʻlmaydi, ularning har biri mahorat deb ataluvchi tilsimning mahsulidir.

Ne saodatkim, Mirzobek birgina bayti bilan Navoiyning olqishiga sazovor boʻlmish. Ne alomatkim, adabiyot tarixida oʻchmas iz qoldirish uchun iqtidorsiz bitilgan minglab misralardan naf yoʻgʻu, isteʼdod barq urib turgan birgina bayt kifoya ekan.

— **Demak, gʻazal — soʻz oʻyinidan iborat ekan-da?**
— Mumtoz adabiyotga qoʻyiladigan bu taʼna ham ancha keng tarqalgan. Avvalambor, «adabiyot — soʻz sanʼati» ekanini hali hech kim rad etmagan. Albatta,

Navoiy, Bobur gʻazallari orasida sof soʻz oʻyiniga bagʻishlanganlari yoʻq emas. Lekin ularning asosiy qismi sira ham shunchaki soʻz oʻyinidan iborat emas.

Misol uchun yuqoridagi gʻazalning maqtaʼini (soʻnggi baytini) olaylik. Uning maʼnosi kamida ikki qavat: 1) Navoiy ishq haqida shu darajada sheʼr bitdiki, uni (Navoiyning oʻzini) taʼriflay boshladilar: 2) Navoiy-ku butunlay boshqa ishq mavzusida sheʼr bitgan edi, oshiqlar uni (sheʼrni) oʻzlarining ishq haqida deb tushunib kuylay boshladilar. Birinchi talqin shoir biografiyasiga

Abdulla AʼZAMOV

ARUZ BAHSI

oid kichik bir chizgi boʻlsa, ikkinchi talqinda Navoiy ijodi xususida dunyo turguncha davom etadigan bahs bashorat qilingan.

Yo boʻlmasa, Boburning dastlabki gʻazali matlaʼini olaylik:

Jonimdin oʻzga yori vafodor topmadim

Koʻnglimdin oʻzga mahrami asror topmadim.

toʻyib ketgan navqiron shahzodaning magʻzur siyosini gavdalaniradi. Baytda odamzod tabiatiga xos boʻlgan, Boburgacha ham, undan keyin ham necha-necha mutafakkirlarni oʻyga choʻmdirgan loqaydlik, xudbinlik, mehruvafoning taqchilligi kabi hodisalar bilan bogʻliq falsafiy mushohadalar badiiy yoʻsinda ifoda etilgan.

Behzod «So'nggi pushaymon o'zingga dushman» naqlini ko'p eshitgandi-yu, lekin qilgan ishidan bunchalik afsuslanishini xayoliga ham keltirmagandi. Tasviriy san'at o'qituvchisi ham qiziq-da, arzimagan narsaga - partaga chizgani uchun barcha sinfdoshlari orasida rosa uyaltirdi. Bu ham kamlik qilganidek Behzodga:

BIR QALAM ADRI



O. VOXONOV chizgan rasm

– Rasm chizishga usta ekan-san, partaga emas, qog'ozga chizish kerak edi. Qara, partangga qarab bo'lmaydigan bo'lib qolibdi. Behzod degan ismga dog' tushirayotganingni bilasanmi? Essiz senga qalam... Kelgusi darsda sendan rassom Kamoliddin Behzod haqida so'rayman. Agar javob bera olmasang, bahoing «2» bo'ladi, tushundingmi? – dedi.

Behzod bo'lsa qizarib-bo'zarib:

– Tushundim, – dedi-yu joyiga o'tirdi.

Yomon bo'ldi-da, xayolidan o'tkazdi u, endi uyiga borib, kitob titishiga to'g'ri keladi. Uyga kelguncha ustozining sinfdoshlari oldida mulzam qilgani Behzodning ko'z o'ngidan nari ketmadi. Yaxshiyamki mehribon buvijonisi bor, yolg'iz nabirasini hech kimga xafa qildirib qo'ymaydi.

Darvozadan uyiga kirar ekan, hovlidan buvisini qidira boshladi:

– Buvi, bu-uvi, qayerdasiz? –

deya Behzod ichkariga kirdi. Buvisini bog'dagi rayhonlar orasida ko'rib, xursand bo'lib ketdi:

– Assalomu alaykum buvijon, bugun birga tushlik qilaylik.

– Vaalaykum assalom, bolam juda xursand ko'rinasan, hoynahoy «5» olib kelgandirsan-da?

Buvisining savoli Behzodga yana muallimining gaplarini eslatdi:

– Buvijon, Behzod degan rassom haqida bilasizmi? – deya buvisining ortidan oshxonaga ergashdi.

– Bilaman, bolajonim, bila-man. Kel, ovqatingni yeb olgin.

– U haqida nimalarni bilasiz?

– Sen ovqatingni yeyaver, men senga Kamoliddin Behzod haqida bir hikoya aytib beraman, – deya buvisi Behzodning yoniga o'tirdi.

Juda zo'r bo'ldi-ku, kitob varaqlashga hojat yo'q. «Professor» buvim bor ekan, ustozimning oldida hech ham uyalib qolmayman.

– Qani buvijon, hikoyangizni

boshlang-chi, faqat sekinroq gapiring, har bir aytgan so'zingiz esimda qolsin.

– Unda eshit, Kamoliddin Behzod Hirotda, hunarmand-kosib oilasida dunyoga kelgan. U ota-onasidan erta yetim qolib, tanikli, mashhur Hirotda rassomi Mirak Naqqosh Xurosoniy qo'lida tarbiya oladi. Mirak Naqqosh uyidagi ijodiy muhit, go'zallik yosh Behzodni san'at va hunarga havas qo'yishga undagan. Qo'lga qalam ushlaganda Behzod juda yosh bo'lgan, shunga qaramay tez orada u chizgan rasmlari bilan ustozining olqishiga sazovor bo'la boshlagan. O'sha vaqtda Navoiyning shaxsiy kutubxonasida ijod qiluvchi Mirak Naqqosh, Hoji Muhammad, xattot Sulton Ali Mashhadiy kabi buyuk rassomlar ham yosh Behzodni o'z davralariga olib, unga ustozlik qila boshlaganlar. Bo'lajak rassom shu kutubxonada Navoiy va boshqalar ijodi ta'sirida kamol topa boshladi. Musavvir sifatida tanilgan Behzod

shosha-pisha: – Aytgan vazifangizni bajarib keldim, ustoz, – dedi. – Qaysi vazifani aytaysan? – ustoz unga savolmiz tikildi. – Buyuk rassom Kamoliddin Behzod haqida aytib bermoqchi edim. – Qani, unda boshla, hamma-miz eshitamiz. Behzod buvisidan eshitganlarini oqizmay-tomizmay so'zlay boshlaganda sinfdoshlari ham uni diqqat bilan tinglay boshladilar. Ustoz nigohini bir nuqtaga qadaganicha Behzodning gapini bo'lmay tingladi. Behzod gapini tugatgandan keyingina: – Bularni qaysi kitobdan o'qiding? – deya savol berdi. – Kitobdan o'qimadim, buvim aytib berdilar. – Unda «5»ni senga emas, buvingga qo'yar ekanman-da? Ustozining gapiga sinfdoshlari kulishganini ko'rib, Behzod yana xafa bo'lib ketdi. – Kulmanglar, nega kulasizlar, – dedi ustoz, – Behzod buvisining gaplarini yodida saqlab qolganining o'zi katta gap. Menimcha, bundan keyin nafaqat Behzodning, balki hech kimning partasi bema'ni narsalar bilan bo'yalganini ko'rmaymiz, shunday emasmi? Har biringiz shu oddiygina qalam qadriga yetsangiz, bir kun kelib orangizdan buyuk rassomlar yetishib chiqishiga ishonaman. Qani, Behzod, kundaligingni olib kel!

– Buvijon, nima uchun Milliy rassomlik va dizayn institutiga Kamoliddin Behzod nomi berilganini endi tushundim, – dedi Behzod.

Tasviriy san'at darsini bir hafta kutgan Behzod, dars boshlanishi bilan ustoziga

Sendek menga bir yori jafakor topilmas, (13)
Mendek senga bir zori vafodor topilmas. (13).

Bu shakldi shamoyil bila xud parisen, (12)
Kim jinsi bashar ichra bu miqdor topilmas. (13)

Ag'yor ko'z olida-yu ul yor ayon yo'q, (12)
G'am xori ko'ngul ichrayu g'amxor topilmas. (13)

Ey gul, meni zor etmaki husnung chamanida, (14)
Ko'zni yumub ochqucha bu gulzor topilmas. (13)

Bobur seni chun yor dedi, yorlig' etgil, (12)
Olamda kishiga yo'q esa, yor topilmas. (13)

Bu dilbar g'azal barmoqning qaysi vazniga tushadi? Aruzni bilmaydigan «g'azalxon» uni qanday o'qiydi? Umuman, Boburning nazm mahorati xususida qanday fikrga keladi? Barmoq vaznida g'azal yozadigan shoirlar shu haqda o'ylab ko'rishlarini istar edik.

Yana bir illat – barmoqqa o'rgangan o'quvchi istar-istamay misralarni turoqlarga ajratishga urinadi. Yuqoridagi g'azalda esa, bo'g'inlar soni turlichaligidan tashqari, ko'rinish turibdiki, turoq yo'q. Shuning uchun oynai jahondami, radiodami, anjumanlardami mashhur g'azallarni deklamatsiya qilganda, suxandonlar, artistlar ularni sun'iy tarzda turoqlarga bo'lib, vaznni buzib o'qiydiki, oqibatda she'rning fayzi ketadi.

(Davomi bor)

– G'azal aruzga tushadimi, tushmaydimi – mazmuni, badiiy saviyasi muhim-ku?

– Bu ancha keyin tarqalgan inglizsh mulohaza.

– G'azal aruz vaznida yozilishi shartmi? Barmoq vaznida yozilsa, osmon uzilib yerga tushadimi?

– Ha. She'r riyat osmonning kattagina bo'lagi uzilib tushadi. Hatto bir qarashda paradoks bo'lib tuyuladigan iddaomiz ham yo'q emas: Barmoq vaznida yozilgan g'azal bemaza bo'lsa-ku sadqai sar, ammo u qancha sifatli bo'lsa, shuncha «ziyon»i ko'proq.

– Barmoqda yozilgan g'azalning – «ziyon»i nimadan iborat ekan?

– Albatta, shartli ravishda «ziyon» – bu so'z qo'shtirnoq bilan yozilayotgani ham shundan. Harqalay, mumtoz adabiyot aruz vazniga asoslangan ekan, bu adabiyot bilan tanishish, undan bahramand bo'lish aruzning hech bo'lmasa alifbesini bilishni, g'azal va dostonlarni, jilla qursa, Navoiy aforizmlarini o'z vaznida o'qiy olishni taqozo etadi. (Yuqorida bir necha bor qayd etilganiday, aruzda o'qishni o'rganishning aslo qiyinchiligi yo'q.) Masalan, Navoiyning nihoyatda mashhur «Odami ersang, demagil odami, Onikim yo'q xalq g'amidin g'ami» baytini olaylik. Uning birinchi misrasi 11 bo'g'in, ikkinchi misrasi esa 10 bo'g'in – barmoqqa o'rgangan she'rxon uchun g'alat. Holbuki, «xalq» so'zi

ketidan undosh kelayotgani bois u o'ta cho'ziq hijo hosil qiladi. Aruzda bitta o'ta chiziq hijo bir cho'ziq va bir qisqa hijoga teng yurgani uchun, Navoiy baytida mazkur so'z vazn hisobida «xal-q» shaklida olinishi, o'qiganda esa «xa-a-al-q» tarzida talaffuz etilishi kerak. Bu oddiy qoida vaznni (mufta'ilun mufta'ilun fo'ilun) shu tariqa muvozanatga keltiradi. Shundan so'ng, baytdan turoq izlamay, u ruknlarga bo'lib o'qilsa, alohida ohang bilan jaranglaydi:

O-da-mi-y er ' sang de-ma-gil ' o-da-mi,
O-ni-ki yo'q ' xal-q g'a-mi' din g'a-mi.
(oniki o'rniga aniki, onikim yoki oningki deb yozish va o'qish noto'g'ri).

Bugun barmoqda yozilgan har bir yaxshi g'azal o'sib kelayotgan avlod nazdida «g'azal ham oddiy she'r, barmoq vaznida yoziladi va shu vaznda o'qiladi», degan tushunchani paydo qiladi, borini esa mustahkamlaydiki, aynan shu sababli u «ziyon»dan xoli emas. Chunki bunday tushunchani singdirib olgan g'azal muxlisi Navoiy, Bobur yoki Nodira devonini qo'lga olsa, she'rning vaznini topa olmaydi. Shu sababli u «mumtoz shoirlar o'z she'rlerini vaznni buzib yozgan» degan bema'ni xulosaga kelsa, ajablanishga o'rin qolmaydi.

Tajriba uchun, maktab o'quvchisiga uning darsligidagi mana bu g'azalni o'qitib ko'ring (misralar oxirida bo'g'inlar soni ko'rsatiladi):

Gazetamizning 39-sonida chop etilgan «Siz maktabdan qaytyapsiz...» maqolasi yuzasidan o'quvchilardan ko'plab maktublar oldik. Ular maqolani ustozlari boshchiligida tarbiyaviy soatda o'qib chiqib, muhokama qilganliklarini yozishibdi. Ayrim dangasaroq o'quvchilar esa o'zlariga kerakli xulosani olishganini ham bayon etishibdi.

Bundan biz ham quvondik va vaqtning qadriga yetadigan tinib-tinchimas tengdoshlaringiz bilan sizlarni ham tanishtirishga ahd qildik.



maqolasini o'qib...

Sardor SODIQOV,

Mirzo Ulug'bek tumanidagi 248-maktabning 7-«V» sinf o'quvchisi, «Paxtakor» futbol akademiyasi tarbiyalanuvchisi:

KUN TARTIBIM BOR

– Darslarim tugagach, hamisha uyga shoshaman. Chunki kunning ikkinchi yarmida futbol mashg'ulotlarim boshlanadi. Mashg'ulotlar haftada uch kun bo'ladi-ku, deysizmi? Yo'q, men uchun bu mashg'ulotlar haftaning barcha kunlari kun tartibimga yozilgan. Bir kuni darvozabonlar sabog'iga borsam, ikkinchi kuni jamoadoshlarim bilan musobaqalarga tayyorgarlik ko'ramiz. Yakshanba kunlari esa shahar chempionatida ishtirok etamiz.

Shunday kun tartibiga o'rganganim bois sira charchamayman. O'zimni tetik, baquvvat his qilaman.

ENG A'LOCHI

Men Muqaddas Norqozoqova bo'laman. Payariq tumanidagi 56-maktabning 9-sinfida o'qiyman.

«Tong yulduzi» gazetasi har bir sonini diqqat bilan kuzatib boraman. «Bu ajib dunyo» sahifasi meni befarq qoldirmaydi. Maqtanyapti demang-u, sinfning eng a'lochisiman. Maktabdagi hech bir tadbir mensiz o'tmaydi. Bir nechta to'garak a'zosiman. Bo'sh vaqtlarimda qo'shiq aytishni, raqsga tushishni, rasm chizishni, she'r va hikoya yozishni juda yaxshi ko'raman. Hammasiga qanday vaqt topasiz, deysizmi? Xohish bo'lsa, bas.



OLMOS

Rivoyat qilishlaricha, bir yigit dashtda ov qilib yurib, qattiq tashna bo'libdi. Otini burib qishloq tomon yo'l olibdi. Birinchi eshikni ochib qarasa, bir kampir yurgan ekan. Undan: «Bir piyola suv bering» deya iltimos qilbdi. Kampir bir kosa suv olib kelayotib, yigitni ko'ribdi-yu nimagadir yiqilib tushibdi. Kampir yigitdan uzr so'rab, qayta suv olib kelish uchun yana uyiga kirib ketibdi. Yigit esa biroz hayallab qolgan kampirni sabrsizlik bilan kutibdi. Biroz vaqt o'tgach kampir yana suv olib chiqib, yigitga

Sog'lom bo'lay desangiz...

NEGA YIQILIB TUSHDINGIZ?



tutqazibdi. Yigit suvni bir zumda ichib bo'lgach, kampirdan: «Onajon, nega yiqilib tushdingiz?» – deb so'rabdi. Shunda kampir: «Bolam, siz harsillab, terlab turgan ekansiz. Sovuq suv ichsangiz, kasal bo'lib qolasiz. Yiqilib bo'lsa ham, vaqtini cho'zishga harakat qildim», – debdi.

Yigit kampirning donoligiga qoyil qolib, tasannolar aytibdi...

Bu rivoyatni bejiz keltirmadik, aziz bolajonlar. Siz ham bugun kuchquvtingiz, g'ayratingiz ichingizga sig'maydigan yoshdasiz. Yodingizda bo'lsin, terlab, chanqab kelib zinhor-bazinhor muzdek suv ichmang. Sog'lig'ingizga befarq bo'lmang. Ayni kuz va qish oylarida ko'payadigan shamollash, gripp kabi xastaliklarni oyoqda o'tkazmay, shifokor tavsiyasiga amal qilib, davolaning.

Siz bolajonlarni navniholga qiyoslab, alohida mehr bilan parvarishlaymiz. Shunday ekan, Siz ham o'zingizni asrang!

AZIZA



Dilnavoz
NAJIMOVA,
Chirchiq shahridagi
26-maktabning
6-sinf o'quvchisi

Nargiza KARIMOVA,
Farg'ona viloyati, Beshariq
tumanidagi 15-maktabning
9-sinf o'quvchisi



TUN

Quyosh botib tog'lar ortiga,
Zulmat qoplar borliqni shu on.
Barcha jonzot oromga ketar,
Meni esa bosar hayajon.
Olis osmon bag'rida nogoh,
Oymomajon kulib boqadi.
Marjon kabi miti yulduzlar,
Murg'ak qalbg'a birdek yoqadi.
Keng samoga uzoq termulsam,
Xayollarim chalkashib ketar.
Ko'nglim ravshan – hademay tunni
Oppoq tongim nurafshon etar.

TONG

Erta tongda uyg'onsam,
Qalbm cho'lg'ar ajib his.
Dimog'imni chog' qilar,
Gulzordan taralgan is.

Ishda unum, baraka,
Kunimdan ko'nglim to'lar,
Aminmanki, hayotda
Bunday tonglar ko'p bo'lar.

Topishmoqlar

Likopchanning opasi,
Kosaning dilbandiman.
Oyijonim choynakdir,
Men uning farzandiman.



Juda-juda ham yumshoq,
U go'yo gordek oppoq.
Darrow o'ylang bu haqda,
Bu oltin momiq...



Shirasi go'yo asal,
Shakli chiroyli go'zal.
Biram xushbo'y hidi bor,
Darmondorilar bisyor.
Sen aytgin o'g'lim Vali,
Nomi uning ...



Mening babaq xo'rozim,
Kuylashga shaydir har dam.
She'r yodlabdi tonggacha,
Uxlamayin sira ham.
Toping, juda oson-ku
Bizlar topdik... (Qu-qu-qu)

QISHLOQ OMON QOLDI


Qaysidir zamonda ko'pni ko'rgan bir donishmand o'tgan ekan. U shunday zehnlilik ekan, butun qishloq ahli gaplarini diqqat bilan tinglab, o'gitlariga amal qilisharkan.

Kunlardan bir kun u yashaydigan qishloqdagi itlarning barchasi to'satdan o'lib qolibdi. Ertasi kuni xo'rozlar ham nobud bo'lishibdi. Uchinchi kuni qishloqda biron bir o'choqda olov yoki chiroq yoqishning iloji bo'lmabdi. Odamlar donishmanddan ushbu voqealarning sababini so'rashsa, u uch safar ham bir xil: «Har yomonlikning bir yaxshiligi bor», deb javob beraveribdi. Biroq, ko'pchilik donishmand aytgan gaplarni tushunmabdi.

Ertasi kuni tunda qo'shni qishloqlarga dushman hujum qilib, uylariga o't qo'yib, vayron qilibdi. Navbat donishmand yashaydigan qishloqqa kelganda, yov qo'shini sarkardasi u tomonga boqib: «Na bir xo'roz qichqiradi, na bir it huradi, uylarning birortasidayam chiroq yo'q. Bu tashlandiq qishloq bo'lsa kerak», deb qo'shinini boshqa tomonga yo'naltiribdi.

Shunday qilib, donishmand yashaydigan qishloq g'anim hujumiga duchor bo'lishdan saqlanib qolgan ekan.

Rus tilidan Bobur ABDUG'AFFOROV tarjimasida





Ko'pincha ishga ketayotganimda harbiy kiyimi o'ziga yarashgan, chamasi oltinchi sinflarda o'qiydigan ikki bola ham bizga hamroh bo'ladi. So'nggi bekatdan chiqqanimiz bois avtobus bo'sh, hamma bemalol o'tirib ketadi. Ammo birinchi bekatdayoq katta yoshdagi yo'lovchi chiqishi bilan bolakaylar dik etib o'rinlaridan turib, joy bo'shatishadi. Har gal bu holatni zavq bilan kuzataman. Bu yigitchalar yarim yo'lda tushib qolishadi. Qiziq, bu atrofda qanday maktab bor ekan-a...

Sizga havas qiladilar



Kuni kecha poytaxtimizning Yunusobod tumanidagi 58-maktabda o'tkazilgan tadbirga taklif etishdi. Taklif qog'ozidan ma'lum bo'ldiki, bugun o'quvchilar qasamyod qabul qilish marosimini o'tkazar ekanlar. Avvaliga hayron bo'ldim. Maktabda bunday yangilik!

Maktab bayramona bezatilgan. O'quvchilarning ota-onalari va boshqa yaqinlari ko'chani to'ldirishgan. Maktab o'yingohiga o'tganda esa ko'zlarim yashnab ketdi. Harbiy kiyimlardagi bolalar bir tekis saf tortib turishardi. Ularning ro'parasidagi minbardan leytenantdan generalgacha bo'lgan zobitlar, shahar va tumanning mas'ul xodimlari joy olishgan. Fursat topib maktab direktori Saodat opa Xudoykuliyevedan o'zimni qiziqtirgan savollarga javob olishga urindim.

– Saodat opa, umumta'lim maktabi negizida harbiy-sport sinflarining tashkil etilishi va uning afzalliklari haqida gapirib bersangiz.

– «Sen yolg'iz emassan» Res-

publika jamg'armasi, «Veteran» jangchi baynalminalchilar uyushmasi tomonidan o'rta ta'lim maktablarida harbiy-sport sinflarini tashkil etish va ularning faoliyatini kengaytirish rejalashtirilgan edi. Ayni damda bunday sinflar nafaqat poytaxtimizda, balki respublikamizning turli maktablarida

Bu qanday maktab?

ham tashkil qilinib, ko'pchilikda katta qiziqish uyg'otmoqda.

Xuddi shu payt o'yingoh uzra tadbir boshlovchisining buyrug'i yangradi. O'quvchilar safga haqiqiy askarlardek bir tekis tizildilar. Ular tantanali ravishda Vatanga sodiq farzand bo'lishga, uni ko'z qorachig'idek asrashga, ajdodlar merosini saqlashga va har jihatdan oldingi saflarda bo'lishga qasamyod qildilar.

Bugungi kunda harbiy-sport sinflari tarbiyalanuvchilari «Yosh chegarachi», «Yosh uchuvchi», «Yo'1

harakatining yosh nazoratchisi», «Yosh desantchi», «Yosh alpinist», «Yosh dengizchi» kabi yo'nalishlar bo'yicha ta'lim olib, malakalarini oshirib bormoqdalar. Quvonarli tomoni shundaki, mazkur sinflar o'quvchilari turli xalqaro sport musobaqalarida g'oliblikni qo'lga kiritmoqdalar. Tadbir davomida ko'plab ota-onalar bilan ham suhbatlashdik.

Ularning aksariyati mazkur sinflarda o'qiy boshlagach farzandlarining fe'l-atvori tubdan o'zgargani, o'zlariga bo'lgan ishonchi ortib, mustaqil fikrlaydigan bo'lib o'sayotganliklarini ta'kidladilar.

Tadbirdan so'ng ishxonam tomon ketib borar ekanman, vujudimni allaqanday ko'tarinki kayfiyat chulg'ab olgandek edi. Kelajak egalari, barkamol avlod voyaga yetib kelayotganini ko'rish, uni his qilish naqadar zavqli.

Yusuf ABDULLAYEV

FAN OYLIKLARI BOSHLANDI

Mana, yangi o'quv yilining birinchi oyi ham ortda qoldi. Ayni kunlarda respublikamizning barcha umumta'lim maktablarida fan oyliklari boshlanib ketdi. Jumladan, poytaxtimizdagi 41-maktabda iqtisodiy va geografik bilimlar oyligi bo'lib o'tdi.

– Qaniydi, barcha fan oyliklari ham shunday qiziqarli tarzda o'tsa, – deya taassurotlar daftarini qo'limga tutqazishdi maktab bitiruvchilari Barkamol Sulaymonov va Zilola Shamsiddinova.

Muzeylarga sayohat, olimlar bilan uchrashuvlar, qiziqarli ochiq darslar tafsilotlariga ko'z yugurtirarkanman, bir zum geografiya olamiga sayr qilgandek bo'ldim.

Sevara Azizova, Gulmira Muhamedova, Sultonposhsha Muzaffarovalarning tashabbuskorlik faoliyatlari shogirdlari e'tirof etgandek, chindan-da maqtovga sazovor ekan.

Faol o'qituvchilar ishlarini ommalashtirish, ularni rag'batlantirish borasida bularning bari hisobga olinganini maktab rahbari alohida ta'kidlab o'tdilar.

Munajat MO'MINOVA

1

Odamga o'xshaydi o'zi,
Mehr berar qop-qora ko'zi,
Gapirmaydi,
Yemaydi, lekin do'st u senga,
Bu nima? Top-chi, jon o'rtoq?!



O'ZINGNI SINAB KO'R!

2

Bahodir to'rtta koptok sotib oldi. Bittasini jiyaniga, ikkitasini o'rtog'iga sovg'a qildi. Otasi unga uchta koptok keltirgan ekan. Unda jami nechta koptok bor?
Hisoblang va javobini yozib yuboring.



3

Komil biroz sho'x bola, qobiliyati yaxshi bo'lsa-da, dangasaligi tutib, darslarni yaxshi o'zlashtirmadi. Bir kuni ustози ham uning ustidan shikoyat qildi. Otasi uyda unga igna, qalam va bir hovuch bug'doy berdi.

– Buni nima qilaman? – deb so'radi u hayron bo'lgancha.
– Javobingni kutaman! – dedi otasi va ko'chaga chiqib ketdi.

Xo'sh, otasi unga nima demoqchi?

Hikoyani davom ettiring va bizga yozib yuboring.
Javoblaringizni e'lon qilamiz.



Ustoz sekingina birinchi siyoh keltirgan bolaning oldiga besh tanga qo'yibdi

(Boshi o'tgan sonda)

O'zingdan qolari yo'q, qishloq bekorchilikni yoqtirmaydi. Ko'pgina mehnatkash tengqurlarim qatorida, kamina ham u qishin-yozin muttasil ro'para qiladigan

masdim. Qiynoqqa evriladigan bunday yelib-yugurishlar ko'nglimga nima berdiyin, nahot ular hayrat uyg'otadigan betakror qishloq romantikasi zanjirini hosil qiluvchi halqalar bo'lsa?! Maktabda hayot tarzi butkul boshqa

biron daqiqani «Kapitan Grant bolalari», «O'n besh yoshli kapitan», «Boshsiz chavandoz», «Gulliver sayohatlari», «Qoplon dara asirlari» kabi chinakam ohanrabosi bo'lgan badiiy asarlarsiz tasavvur qilolmasdim. Hatto ulardan birontasini yostig'im ostiga qo'yib uxlardim, ba'zi adabiy qahramonlarni tushlarimda ko'rardim.

Endilikda bolajonlarimiz muqaddas ilohiy ne'mat hisoblangan yozma badiiy adabiyot, xalq og'zaki ijodi, umuman, aql-u idrok va tafakkur mash'alini yoqish, dilda go'zallik tuyg'usini shakllantirishga xizmat qiladigan so'z san'atidan olislab borishayotgani seziladi. To'g'ri, hozirgi vaqtda hayotimiz kino, televizioniye, internet tizimi, video va audio mahsulotlari bilan uzviy aloqadorlikda ravnaq topayotganini inkor etolmaymiz. Lekin bu holat uzoq asrlar davomida kamolga yetgan, ma'naviy olamimiz ajralmas qismi hisoblangan badiiy durdonalar jozibasini unutish yoki ularning ma'rifiy ahamiyatiga sovuq nazar bilan qarash uchun asos bo'lolmaydi.

Esimda, maktabda badiiy asarlar keng ma'noda go'zallik va ezgulik targ'ibotchisi ekanligi borasida ko'p gapirildirdi, o'zbek tili va adabiyoti darslari mudom aql-u zakovatni peshlab, dilni kamolotga yetkazish, insoniy fazilatlar ichra eng muhimi ekanligiga doir qizg'in bahs-u munozaralarga ulanar edi. Katta tajriba va malaka to'plagan Sattor Jumayev, Usmon Burhonov kabi ustozlar uyushtirgan adabiy gurunglar paytida, kamina nazdida, eshik ortida tilla sochlarini taray-taray ilhom parisi poylab turgandek tuyulardi.

Hech kutilmaganda Toshkentdan Mashhura Haydarovna degan yoshgina bilimdon mutaxassis rus tili va adabiyoti muallimi sifatida qadam ranjida qildi-yu, maktabda hukmron qaynoq muhit ancha

olovlandi, ijodiy to'garaklar jonlanib qoldi, negaki, u mo'jaz dargohga o'zi bilan muazzam poxyat ruhini boshlab kelgan edi.

Bu yog'ini so'rasangiz, kamina to'rtinchi sinfdayoq davosi yo'q sherbozlik kasaliga chalingan edim. Keyinchalik, Mashhura Haydarovna tashrifi bahona vaziyat sezilarli o'z-gargach, asta-sekin dardim zo'raydi. Ammo ijod asosan daftar to'ldirishdan iborat deb o'ylardim chamasi, yiroqni chiroqqa qofiya qilib tashlayverardim.

Sinf va hatto ba'zan butun maktab devoriy gazetasi Mamatqul bilan kamina ixtiyorida bo'lardi, e, supraday qog'ozini she'r-u, maqolay-u, karikatura bilan shunaqa miriqib bezatardikki, buncha ilhomni qaydan topganimizga bugun aqlim yetmaydi.


Tez orada biz, qalam shaydolari uchun devoriy gazeta maydoni torlik qila boshladi. Hali qanoti qotmagan jo'ja bo'lsak-da, ruhga qoniqish maylini baxsh etadigan baland parvozlarni tusardik: ishtiyog zo'rli bois hademay tuman gazetasi zabt etildi, keyin dadil-lashib, yuqoriroqqa ko'z tikdik. Rosti, bunisi oson kechmadi, to'g'ri, har zamonda hozirgi «Tong yulduzi», «Turkiston» yoki boshqa nashrlardan undog'u bundoq mazmunida pand-u nasihat xatlari olib turardik.

Oxiri, bir kun nogahon maktab bir to'ntarilib tushdi ura! – Har kim qo'li yetmaydigan «Mushtum» jurnalida «Chip-chip jo'jalarim» sarlavhali mittigina maqolam bosildi. Barcha talashib-tortishib o'qidi-yu, akangiz qarag'ay binoyidek qahramonga aylandi-qoldi. O'z ziyam o'lat tekkan kolxoz tovuqxonasini qalampirday-qalampirday achchiq-tiziq kinoyalar bilan «bombardimon» qilib yubor-gandim.

(Davomi bor)

BO'SAG'A

Asad DILMUROD




g'alvalarga bo'ysunardim va oila-ro'zg'or ikir-chikirlariga o'ralashib qolardim: bir qo'lda o'rog'u ketmon, birida – kitob-u daftar, xas-u xashak o'rish, yer chopish, suv yoqalash, o'tin orqalab kelish, mol-u holga qarash kabi oxiri ko'rinmas tashvishlardan bo'sha-

edi, maktab deyarli barchamizni mutolaadek ajoyib mashg'ulotga bog'lab qo'ygandi. Kamina, har qancha ro'zg'or tashvishlariga ko'milsam-da, vaqt topib-topmay, oyog'imni qo'lga olgancha qishloq kutubxonasi sari yugurardim. Nimasini aytasiz, o'shanda

Qadim zamonda ilmli, iymonli, badavlat bir kishi yashagan ekan. U mahallasidagi nochor oilalar farzandlariga qanday yordam berishni ko'p o'ylar ekan. Uch-to'rt kun non-tuz bergani bilan maqsadga erishib bo'lmasligini, qo'ldan berganga qush to'yimasligini o'ylay-o'ylay oxiri, savodsiz bolalarning savodini chiqarish uchun o'z uyida maktab ochibdi. Uyma-uy yurib kambag'al oilalardan o'ttizta bola yig'ibdi va ularni o'qita boshlabdi.

Daromad keltiradigan ishlarini peshindan keyinga qo'yib, peshingacha bolalarga bepul saboq beribdi. Avvaliga o'ttiz nafar bolaning o'ttiz xil xulq-atvoridan dovdirab qolibdi. Bir kuni saboq paytida ustozning siyohdondagi siyohi tugabdi. O'quvchilardan birining qo'lga bir tanga berib, guzardan siyohdonni to'ldirib kelishni iltimos qilibdi. Haligi o'quvchi bir tangaga siyohdonni to'ldirib kelibdi. Ustoz siyohni nochor o'quvchilarga ulashibdi va yana boshqa o'quvchiga bir tanga berib siyohga jo'natibdi. Ikkinchi



o'quvchi siyohdonni siyohga to'ldirib, yarim tanga mayda pul qaytarib kelibdi.

Ustoz sekingina birinchi siyoh keltirgan bolaning oldiga besh tanga qo'yibdi. U bola boshini egibdi. Uning ham yarim tangaga siyoh olgani ma'lum bo'lgach, uyatdan yig'lab yuboribdi. Yashirib qo'yan yarim tangasini besh tanganing ustiga qo'yib, qayta-qayta kechirim so'rabdi. Shundan keyin ustoz odob-axloq, to'g'rilik, rostgo'ylik haqidagi saboqlarini birinchi o'ringa qo'yibdi. Chunki yarim imon bilan ilm olish befoyda ekan. Bola tarbiyasida o'zining ham yetarli tajribasi yo'qligini anglab, o'zi ustida ko'p ishlabdi. Shogirdlarini shunday tarbiyalabdi, ular ilm va imon yo'lini mahkam tutibdilar. Voyaga yetishgach ustozni ularni o'lkani o'ttiz joyiga jo'natibdi. Ular ham xuddi ustozlaridagi imon va e'tiqod bilan juda ko'p bolalarga saboq berib, ona yurt rivojiga o'z hissalarini qo'shibdilar.

Barno RUSTAMOVA

Tug‘ma iste‘dodga ega insonlar jamiyatning taraqqiy etishiga, ilm-fan, san‘atning yuksalishiga ulkan hissa qo‘shadilar. Ular oddiy odamlarning aqli yetmagan, tushunmagan narsalarni osonlik bilan ilg‘ab oladilar, g‘ayrioddiy qobiliyatlari tufayli kutilmagan kashfiyotlarga qo‘l uradilar.

Ulug‘ alloma Mirzo Ulug‘bekning shogirdi, «Farzandi arjumand» darajasiga yetgan Ali Qushchi 15 yoshida falsafaga oid asar yozib, barcha olimlarni hayratga

paytlarda eng so‘nggi rusumdagi avtomobil chiroqlariga nisbatan yo‘lni ikki yarim baravar yaxshi yoritadi va qarshi tomondan kelayotgan transport haydovchisining ko‘zini qamashtirmaydi. Andreyning farasi barcha rusumdagi avtomobillarga mos tushishi barobarida unchalik qimmat emasligi bilan ham ajralib turadi. Uning ixtirosi bilan ayni kunlarda Butunjahon intellektual mulk jamiyati ham qiziqib qolgan.

Intellect, ijodiy yaratuvchanlik qobiliyati millatning asosiy boyligidir. Bu

Mashhur fransuz matematigi Aleksii Klero (1713–1765-y.) 10 yoshida oliy matematikani mukammal bilgan. 12 yoshida o‘zining birinchi ilmiy kashfiyotini yaratgan. O‘n sakkiz yoshida esa Parij fanlar akademiyasiga a‘zo bo‘lgan edi.

Lev Landau 13 yoshida maktabni, 19 yoshida universitetning fizika fakultetini tamomlashga muvaffaq bo‘ladi. U 26 yoshida fizika-matematika fanlari doktori ilmiy darajasini qo‘lga kiritgan bo‘lsa, oradan bir yil o‘tib professorlik darajasiga

yetmaydigan matematik masalalarni hech bir qiyinchiliksiz yechishga qodir. Ayni paytda zakovati o‘ta yuqori bu bolakay maxsus o‘quv dasturi asosida ta‘lim olmoqda.

Londonda yashovchi, 12 yoshli Aleks Prayer bir necha marta Britaniya vokal tanlovlarining laureati bo‘ldi.

Uning juda noyob ovozi mutaxassislarda katta qiziqish uyg‘otmoqda. Angliyalik bu vunderkind konsertlarda ishtirok etib, opera ariyalarini, romanslarni bir necha tillarda kuylab, muxlislarini lol

TUG‘MA ISTE‘DOD EGALARI

solgan. Yana ulug‘ alloma Abu Rayhon Beruniy 6 yoshida buyuk olim Abu Nasr ibn Iroqning nazariga tushgan. Elimizda bunday tug‘ma iste‘dod egalari juda ko‘p bo‘lgan.

Hozirgi davrning noyob qobiliyat sohiblari qatoriga Rossiyaning Krasnodar o‘lkasida yashovchi 10 yoshli Andrey Xlopinni qo‘shish mumkin. U turlari osmonda nur taratadigan «kumush bulutlar» deb ataluvchi hodisa sababini tushuntirib berib, barchani lol etdi. Ushbu fenomen 150 yildan beri olimlar uchun jumboq bo‘lib kelayotgandi. 10 yoshli bolakay esa juda katta balandlikda barcha namlik muz kristallariga aylanishini va ulardan nur taralishini isbotlab berdi. Andreyning nomi ushbu gipotezasi uchun Ginnesning rekordlar kitobiga kiritildi.

Shaxmat bo‘yicha jahon chempioni Rustam Qosimjonov o‘ta noyob qobiliyatini juda kichikligidan o‘zida shakllantirgan. U besh yoshida dunyo mamlakatlari xaritasidan so‘ralgan davlatlarni tezda topib bera olgan. Shaxmat donasini surishda esa eng tajribali ustozlarni ham bir necha daqiqada mot qila olgan.

AQSHning Ayova shtatida yashovchi 18 yoshli Mattias Gassman maktabni bitirganiga ikki hafta bo‘lmay universitet Diplomini ham qo‘lga kiritdi. Ma‘lum bo‘lishicha, Mattiasning ota-onasi unga yoshligidanoq uy sharoitida ta‘lim berib kelishgan. 11 yoshida u davlat universitetida lotin tilidan dars ola boshlagan. 14 yoshida esa oliy ta‘lim mashg‘ulotlarini maktab darslari bilan birgalikda bajara boshlagan.

Poltavalik o‘n olti yoshli Andrey Xodurskiyning nomi ham tarixda qoldi. Bu o‘spirin avtomobillar uchun ajoyib yo‘l yoritish tizimini o‘ylab topdi. Andrey amerikalik muhandislar 20 yildan buyon bosh qotirib, yechimini topolmay kelayotgan masalani bir o‘zi hal qildi qo‘ydi. U taklif etgan faralar qorong‘u

Bu o‘g‘il-qizlar o‘ta qobiliyatli, tug‘ma iste‘dodli bolalar bo‘lib, haqiqiy ma‘noda jamiyatning bebaho boyligi sanaladi.



Olovskaya, Oripov kollaji

Biz iste‘dodli, fidoyi bolalarmiz, farzandlarimizga bilim va kasb cho‘qqilarini zabt etishi uchun qanot berishimiz kerak.

haqiqatni allaqachonlar anglab yetgan yaponlar iqtidorli bolalarini juda qadrlashadi, ularning ta‘lim olishlari, yetuk shaxslar bo‘lib yetishishlari uchun har qancha mablag‘ni ayamaydilar. Isroilda qobiliyatli bolalarga ta‘lim berishning samarali tizimi mavjud bo‘lib, u davlat siri sanaladi. AQSHda esa qobiliyatli bolalar safini kengaytirish tizimi ishlab turibdi.

Yosh qobiliyat egalari xususida tarixdan juda ko‘plab misollar keltirish mumkin. Motsart 3 yoshidan boshlab konsertlarda ishtirok etgan. Buyuk musavvir Pablo Pikasso hali gapirishni o‘rganmay turib, suratlar chizgan. Qiziq jihati shundaki, hatto, o‘n yoshga to‘lganida ham raqamlarni bilmagan va eng oddiy arifmetik misollarni ham yecha olmagan Pablo o‘qishni, hisoblash va karra jadvalini juda qiyinchilik bilan o‘zlashtirgan. Ammo boshqalar oylar davomida qayta-qayta imtihon topshiradigan Barselonadagi San‘at maktabiga 14 yoshida bir kunda barcha imtihonlarni topshirib bo‘lgan. Mashhur rassomning birinchi asarlar ko‘rgazmasi 1897-yilda, 16 yoshida o‘tkaziladi. Oradan bor-yo‘g‘i to‘rt yil o‘tib, Parijda namoyish etilgan «Movi» yo‘nalishdagi ishlari uning nomini jahonga tanitdi.

erishadi. 1962-yilda u Nobel mukofoti bilan taqdirlanadi.

Yana bir qiziq fakt. Iqtidorli bolalar litseylaridan birining direktori, Rossiya xizmat ko‘rsatgan o‘qituvchi Tatyana Xromova qobiliyatli bolalar bilan ishlashga juda qiziqadi. Kunlarning birida uning huzuriga, hatto, oddiy maktab darslarini ham o‘zlashtirishga qiynalayoatgan Saveliy Kosenko degan o‘quvchini olib kelishadi. T.Xromova Saveliy uchun maxsus dastur ishlab chiqadi va bolaga shu asosda dars berishni boshlaydi. Natijada, «qoloq» bola 10 yoshida fizika fani bo‘yicha qo‘llanma yaratadi, o‘n yosh-u ikki oyilgida o‘rta maktabni tugatib, oliy o‘quv yurtiga o‘qishga kiradi. Saveliyning nomi ham Ginnesning rekordlar kitobidan joy oldi.

Tatyana Xromovaning qo‘lida kamol topgan yana bir vunderkind — Daniil Lantuxov 12 yoshida maktabni muvaffaqiyatli bitirib, universitet talabasi bo‘ladi. Uning yana bir yurtdoshi Moskva Davlat universitetining iqtisod fakultetiga o‘qishga kirganida 13 yoshli qizaloq edi.

Misrlilik to‘qqiz yoshli bolakay arifmetik amallarni miyasida kompyuter tezligida bajara oladi. Zukkolikda tengqurlaridan ancha o‘zib ketgan Mahmud Vail, hatto kattalarning aqli

etmoqda. Aleks bundan tashqari, musiqa yozish bilan shug‘ullanadi. Uning orkestr jo‘rligida fortepiano uchun yaratgan musiqasi kompakt-disklarda chiqarilgan. Bolakayning o‘zi ham bir qancha musiqa asboblarni chalishni biladi.

XXI asrda ham o‘ta noyob qobiliyat egalari ko‘plab ko‘zga tashlanmoqda. Italiyalik Ettor ismli uch yashar bolakayga gazeta va jurnal o‘qishni hech kim o‘rgatmagan. Barchasini kattalarni kuzata turib, o‘rgangan ekan. Uning qanday iste‘dod egasi ekanligini kelajak ko‘rsatadi.

Bizning zaminimiz ham insoniyatga ne-ne daholarni yetishtirib bermagan, deysiz. Abu Rayhon Beruniy, Mirzo Ulug‘bek, Abu Ali ibn Sino, Muhammad Xorazmiy, Mahmud Zamaxshariy, Ahmad Farg‘oniy singari ulug‘ allomalarning amalga oshirgan ishlarini sanasak, adog‘iga yetolmaymiz. Xalqimizda oqqan daryo oqaveradi, degan naql bor. Hozirda ham farzandlarimiz orasida o‘ta qobiliyatli va iste‘dodlilar ko‘plab topiladi. Siz-u biz esa ulardagi mana shunday noyob qobiliyatni vaqtida ilg‘ab olish va rivojlantirish uchun qo‘limizdan kelgan yordamni ayamashimiz zarur. Bu farzandlarimiz, qolaversa, millatimiz, jamiyatimiz oldidagi burchimizdir.

Internet va OAV materiallari asosida Jabbor RAZZOQOV tayyorladi



MENGA MASLAHAT BERING

Ingliz tili darsi edi. Ustozimiz test varaqalarini tarqatib chiqdilar-da, javoblarini kitobdan ko'chirmasligimiz uchun, kuzatib o'tirdilar. Shu payt eshik ohista taqillab, ustozimizni kimdir chaqirib qoldi. Bu esa biz uchun ayni muddao bo'ldi. Papkamizdan kitoblarimizni olib, test savollariga javob izlay boshladik. Shu payt o'qituvchimiz kirib qoldilar. Shoshganimdan kitobimni dugonam Aziza tomonga itarib yuborganimni bilmay qolibman. Ustoz Azizaning oldidagi ochiq holda turgan kitobni ko'rib: «Aziza, test yozishing shart emas, sening bahoying tayyor» deya jurnalga «2» baho qo'ydilar. Dugonam menga qaradi. Mening esa aybimni tan olishga jur'atim yetmay, yerga

qarab oldim...

Dars tugadi. Katta tanaffusda dugonamdan uzr so'radim. Hozir jahli chiqib meni koyib bersa kerak, deb o'ylagandim. U esa: «Hechqisi yo'q dugonajon, sendan xafa emasman» dedi muloyimlik bilan.



Ammo men baribir o'zimni aybdor deb his qilyapman.

Aybimni yuvish uchun nima qilay? Maslahat bering do'stlarim.

Gulandom ZIYODULLAYEVA,
Sirdaryo viloyati, Boyovut tumani

BIR BOLA BOR...



Bir bola bor,
har terakka,
O'yib o'z nomin yozdi.
Va bu bilan
mahallada,
«Ahmoq» deb nom chiqazdi.
Afsus!

SHIRINTOMOQ



Bir bola bor, shirintomoq,
Shirinlikni xush ko'rar.
Uxlas ham shirin-shirin,
Taomlarni tush ko'rar.
Uncha-muncha ovqatlarni,
Nazariga ilmas u.
Ammo, shirin qachon, qanday,
Yaralishin bilmas u.
Bilsa edi!..

Yo'ldosh SULTONOV,
Andijon viloyati,
Shahrixon tumani

XANDI

Shifoxonada davolanayotgan bir bolakayga hamxonasi tanbeh berdi:
- Shifokor senga go'shtli taom yeyishni taqiqlagan-ku, sen bo'lsa go'shtli xonimni paqqos tushirding.
- Hechqisi yo'q, xonimning ichidagi go'shtni shifokor ko'rib o'tiribdimi?

QIZIQARLI MASALALAR

2. Paroxod palubasining balandligi dengiz sathidan hisoblanganda 7 metr. Suv sathi 1,5 metr ko'tarilgan bo'lsa, paluba dengiz yuzidan necha metr balandlikda bo'ladi?

1. Kubning qirralari 20 foizga uzaytirilsa, uning hajmi necha foizga oshadi?

3. Ali, Nabi va G'ani javondagi kitoblarni sanamoqchi bo'ldi. Ali ularning 34 foizini, Nabi 41 foizini sanadi. G'ani sanagan kitoblar esa 32 ta bo'ldi.

Savol:
Ali va Nabi sanagan kitoblar qancha?

FAQAT BIR MAROTABA YOZILGAN RAQAMNI TOPING



Sirdaryo viloyati, Mirzaobod tumanidagi A.Navoiy nomli 1-maktab o'qituvchisi Gulsara AHROROVA bolajonlarning quvnoq tanaffuslari yanada mazmunli, maroqli o'tishiga hissa qo'shish niyatida boshqotirmalar tuzib, rangli rasmlar bilan bezatib yuboribdi. Quyida e'tiboringizga ana shu boshqotirmalardan havola qilyapmiz.

GULGA YASHIRINGAN SO'ZLARNI TOPING



Muassislar:

O'zbekiston Matbuot va axborot agentligi,
O'zbekiston Respublikasi Xalq ta'limi vazirligi,
«KAMOLOT» yoshlar ijtimoiy harakati Markaziy Kengashi,
«SOG'LOM AVLOD UCHUN» hukumatga qarashli bo'lgan Xalqaro xayriya jamg'armasi.

BOSH MUHARRIR:
To'liqin HAYITOV

Dizaynerlar:
Fazliddin SHOYODGOROV,
Olovuddin ORIPOV
Naybatchi:
Yusuf ABDULLAYEV
Musabhih:
Dilorom HOTAMOVA

Gazeta
O'zbekiston Matbuot va axborot agentligida 0208-raqam bilan 2007-yil 2-fevralda ro'yxatdan o'tgan.

TAHRIR HAY'ATI:
Avaz MARAHIMOV,
Svetlana INOMOVA,
Qahramon QURANBOYEV,
Odina JAMOLDINOVA,
Jabbor RAZZOQOV,
Murtazo SULTONOV,
Feruza JALILOVA
(Bosh muharrir o'rinbosari).
Feruza ADILOVA
(mas'ul kotib),
Dilmurod RAHMATILLAYEV,
Dilshoda DADAJONOVA

Manzilimiz:
Toshkent shahri,
Navoiy ko'chasi, 30-uy.
Indeksi: 100129.
Obuna indeksi: 198.
e-mail: tong1924@bk.ru
www.tongyulduzi.uz
Tel: 244-27-25, 244-63-08
Tel./faks:
(99871) 244-38-10

«O'zbekiston» NMIUda chop etildi.
Tahririyatga kelgan barcha qo'lyozmalar tahrir qilinadi, mualliflarga qaytarilmaydi.
Haftaning dushanba kuni chiqadi. Shaki A-3,
2 bosma tabaq.
ISSN 2010-6092
Adadi - 32774
Buyurtma N: J 238